
QO'SHTEPA TUMANI PROKURATURASI JAMOASIGA TABRIK

8 yanvar - Prokuratura xodimlari kuni. Prokuratura organlari xodimlarining kasbiy bayrami sifatida belgilangan kun prokuratura organlarida xizmat qiladigan barcha xodimlar, jumladan faxriylari qalbidagi orzu-umidlar ro'yobga chiqqan qutlug' sanadir.

Ta'kidlash joiz, prokuratura organlari tomonidan jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, umuman, barcha yo'nalishlarda salmoqli ishlar qilinmoqda va muhim natijalarga erishilmoqda.

Bugun prokuratura organlari xodimlari zimmlariga yuklatilgan har qanday vazifani bajarishga vijdonan, sadoqat va yuksak mas'uliyat bilan yondashmoqda desak hych mubolag'a bo'lmaydi.

Prokuratura organlari xodimlarini kasb bayrami bilan tabriklab, har bir xodimi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, olijanob xalqimizning haqiqiy himoyachisi, adolat va qonuniylik posboni bo'lib, faqat va faqat xalq manfaati yo'lida og'ishmay xizmat qilishlarida muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi

2021-01-08 15:55:15